

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

6
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'ZR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinova, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'ZR Tabiat resurslari vazirligi,
O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli
qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari	6
Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi	11
Karimova Nilufar , tayanch doktorant	
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan	16
Peng Xinge , PhD Researcher	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari	21
Xotamov Ibodulla Sadullayevich , i.f.n., professor, Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li , kafedra assistenti	
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari	28
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich , PhD, katta o'qituvchi	
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari	31
Azlarova Munira Muhammad Amin qizi , tadqiqotchi	
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective	40
Kuzikulova Dilfuza	
Qualitative functional development in industrial production	49
Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna , TSUE, DSc, assistant professor	
Temir yo'l transportini mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati	54
Xamrayev Djamshid Panjiyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes	61
Eshbayev Oybek , Department of English Language	
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy	68
Rozikov Ravshan , Department of English Language	
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy	76
Kurbanova Nigina , Department of English Language	
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road	85
Kalonov Mukhiddin Bahritdinovich , professor	
Shao Junling , PhD student, researcher	
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration	90
Zhao shenghan	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati	96
Abduraximova Dilora Karimovna , PhD	
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari	101
Xasanxonova Nodira Isametdinovna , PhD	
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish	107
Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich , kafedra assistenti	
Innovatsion faoliyatning asosi – intellektual salohiyat	112
Kaxorova Anora Nusratovna , kafedra assistenti	
Ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari	118
Qahramon Usmanovich Umidullayev , yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari	124
Xamrayev Djamshid Panjiyevich , mustaqil tadqiqotchisi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish	129
Tulayev Mirzakul Salamovich , dotsent	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari	133
Sh. B. Babayev , dotsent; M. R. Qulmetov , dotsent	
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari	138
G'aniyev Shahriddin Vohidovich , professor, i. f. d. (DsC), Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	



Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики	144
Жиянова Наргиза Эсанбоена , к.э.н., проф., Азимжонова Малика Шавкат қизи , специалист первой категории	
To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi	150
Yaxyayeva Inobat Karimovna , dotsent, PhD	
Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan.....	154
Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli	
“История экономических учений” как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов	160
Хакимов Назар Хакимович , доктор философских наук, профессор	
The importance of strategic management and strategic leadership	166
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li	
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development.....	170
Xasanova Zarina , Department of English Language	
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlili.....	178
M. O. Hamroqulov , katta o'qituvchi	
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya.....	185
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region)	188
Saidov Nurali Rakhimovich	
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region.....	193
S. M. Rakhimova	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	197
Джурабаев Отабек Джурабаевич , доцент	
Soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari	204
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li , talaba	
Hayot sug'urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagi o'rni	207
Baratova Dinora Alisherovna , katta o'qituvchisi	
Edge Computing texnologiyalari	213
Qulmatova S. , PhD, katta o'qituvchi; Karimov Botir , katta o'qituvchi	
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati	218
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , PhD, dotsent	
Xususiylashtirishning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlarini.....	223
Odilova Sitora Sayfitdin qizi , katta o'qituvchi	
Tomorqa xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko'rsatkichlari	228
Saydullayeva Fotima Jozilovna , assistant	
O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyati.....	235
Xasanov Xayrulla Nasrullayevich	
O'zbekiston yoshlarida volontyorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba	241
Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе	247
Оспан Айзада Бейсенқызы , докторант 2 курса	
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili.....	251
Mirzoyev Feruz Mamurjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari.....	259
Abdualim Abdujabbor o'g'li Abdurazzoqov , mustaqil tadqiqotchi	
Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country's economic growth	267
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
Bank daromadlilik ko'rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta'siri.....	274
Madraimov Xabibulla Madaminovich , assistant o'qituvchi	



Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari	282
Mamatov Mamajan Axmadjonovich , i.f.n., dotsent	
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash	288
Ergashova Nargiza Boboxonovna , talaba	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari	296
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari	301
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich , dotsent	
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari bozorining ahamiyati	306
Babadjanova Malika Ruzimovna , assistent o'qituvchi	
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli	312
Kamilov Baxramjon Umardjonovich	
Shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim	317
Bekdavlat Aliyev , professor, falsafa fanlari doktori	
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari	321
O. T. Nurmatov , PhD	
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari	327
Abdullayev Suyun Artiqovich , O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	335
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari	346
Saidaxmedova Aida Mirzayevna , katta o'qituvchi	
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish	352
D. A. Azlarova , PhD	
The Intersection of Sustainability and Economic Development: Balancing Environment and Business Needs	360
Kholikova Rukhsora Sanjarovna , PhD, Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli , student	
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari	364
Zuhra Abdikarimova , tayanch doktorant	
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfelni shakllantirish	370
Sindarov Fazliddin Qahramonovich , kafedra assistenti	
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari	376
To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi , assistent	
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari	381
B. K. Tuxliyev , professor	
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida	386
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi , PhD	
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida)	391
Aminboy Sa'dullayev , i.f.n, dotsent, Dilshod Vaisov , magistr, Farhod Egamberganov , magistr	
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish	397
Pardayev Jamshid Muzaffarovich , tadqiqotchi	
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari	403
Muxitdinova Kamola Alisherovna , PhD	
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction	407
Gafurov Olimjon , teacher, Kholmuminov Humoyun , teacher, Abrueva Sevinch , student,	
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики	411
Ф. Т. Абдувахидов , доцент, А. Ю. Нурмухаммедов , доцент	
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri	417
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna , dotsent	
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan	420
Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli	



O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Xotamov Ibodulla Sadullayevich

i.f.n., professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Yashil”
iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrası mudiri



Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Yashil” iqtisodiyot va
bargaror biznes kafedrasasi assistenti



Annotatsiya: bugungi kunda har bir davlat oldida qaysidir ma'noda iqtisodiy jarayonlarning bir muncha qiyin davri yuzaga kelmoqda. Xususan, tabiiy resurslarning kamayib borishi, demagrafik jihatdan aholi sonining oshishi, iqlim o'zgarishlari, ehtiyojlarining kundan kunga oshib borishi kabilarni aytib o'tishimiz mumkun. Bularning barchasi iqtisodiy jarayonlarga o'zining ijobiy va salbiy jihatlari bilan ta'sir ko'rsatmoqda.

Kam uglerodli va qayta tiklanuvchi energiyaning bugungi kundagi dolzarbligi har bir davlat uchun juda katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizda ham qayta tiklanuvchi energiyaga ustuvor e'tibor qaratilmoqda, shu orqali sanoat korxonalarida energiya muammosini hal qilishga, atrof-muhit bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga, tabiiy resurslardan oqlona foydalanishga hamda mavjud imkoniyatlardan ilmiy-institutsional foydalanishga harakat qilinmoqda.

Ushbu maqolada qayta tiklanuvchi energiyaning ishlab chiqarish korxonalari va sanoat sohasida ahamiyati yoritib berilgan hamda takliflar, kuzatuvlar asosida kelgusi yillar uchun muqobil energiya quvvati prognoz qilingan.

Kalit soʻzlar: Oʻzbekiston, iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, quyosh energiyasi, gidrelektstantsiya, fotoelektstantsiya, quyosh batareyasi, ishlab chiqarish korxonalari, sanoat korxonalari, muqobil energiya.

Abstract: Today, every country is facing a somewhat difficult period of economic processes. In particular, we can mention the decrease of natural resources, the demographic increase of the population, climate changes, and the day-by-day increase in their needs. All this has positive and negative effects on economic processes.

Today's relevance of low-carbon and renewable energy is very important for every country. In our country, priority attention is paid to renewable energy, through which efforts are being made to solve the energy problem in industrial enterprises, to eliminate problems related to the environment, to rationally use natural resources, and to make scientific and institutional use of available opportunities.

In this article, the importance of renewable energy in production enterprises and the industrial sector is highlighted, and based on suggestions, observations, alternative energy capacity is predicted for the coming years.

Key words: Uzbekistan, economy, renewable energy, solar energy, water energy, hydroelectric power station, photoelectric power station, solar battery, production enterprises, industrial enterprises, alternative energy.



Аннотация: Сегодня каждая страна переживает несколько сложный период экономических процессов. В частности, можно отметить сокращение природных ресурсов, демографический рост населения, изменение климата и ежедневное увеличение его потребностей. Все это оказывает положительное и отрицательное влияние на экономические процессы.

Сегодняшняя актуальность низкоуглеродной и возобновляемой энергетики очень важна для каждой страны. В нашей стране приоритетное внимание уделяется возобновляемым источникам энергии, благодаря которым предпринимаются усилия по решению энергетической проблемы на промышленных предприятиях, устранению проблем, связанных с окружающей средой, рациональному использованию природных ресурсов, научному и институциональному использованию имеющихся возможности.

В данной статье выделена важность использования возобновляемых источников энергии на производственных предприятиях и в промышленной сфере, и на основе предложений, наблюдений прогнозируется альтернативный энергетический потенциал на ближайшие годы.

Ключевые слова: Узбекистан, экономика, возобновляемые источники энергии, солнечная энергия, энергия воды, гидроэлектростанция, фото электростанция, солнечная батарея, производственные предприятия, промышленные предприятия, альтернативная энергетика.

KIRISH

Muqobil energiya qashshoqlikni tugatish, iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasini yaxshilash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Dunyoda qazib olinadigan yoqilg'iga xavfsiz, kam uglerodli va arzon, keng ko'lamli energiya alternativlari yo'q. Biz bu muqobillarni kengaytirmagunimizcha, dunyo ikkita energiya muammosiga duch kelishda davom etadi: yuzlab, millionlab odamlar energiyaga muhtoj bo'ladi va energiya tizimimizda qazib olinadigan yoqilg'ilarning ustunligi iqlim o'zgarishi va havoning ifloslanishi kabi sog'liqqa zarar keltiruvchi ta'sirlarga olib keladi. Dunyodagi har bir inson toza va xavfsiz energiyaga ega ekanligiga ishonch hosil qilish uchun biz energiya iste'moli va uning bugungi kunda butun dunyo bo'ylab ta'siri va vaqt o'tishi bilan bu qanday o'zgarganini tushunishimiz kerak.

Xalqaro energiya agentligi (IEA) ^[1] ma'lum qilishicha, muqobil energiya nafaqat uy xo'jaligiga etkazib berishni o'z ichiga oladi, balki, u uy xo'jaliklaridan elektr energiyasining belgilangan minimal darajasini qondirishni talab qiladi, bu uy xo'jaligi qishloq yoki shahar ekanligiga qarab belgilanadi va vaqt o'tishi bilan u ko'payadi. Qishloq uy xo'jaliklari uchun bu minimal chegara yiliga 250 kilovatt-soat (kVt/soat), shahar uy xo'jaliklari uchun esa yiliga 500 kVt/soatni tashkil qiladi. Global miqyosda so'nggi bir necha o'n yilliklarda elektr energiyasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan odamlarning foizi doimiy ravishda o'sib bormoqda. 1990-yilda dunyo aholisining taxminan 71% elektr energiyasidan foydalanish imkoniyatiga ega edi, bu 2016-yilda 87% ga ko'tarilgan. Bugungi kunga kelib bu ko'rsatkich taxminan 90% ga yetkanligini aytib o'tishimiz mumkin. Bugungi kunda elektr toki bilan ta'minlanganlik darajasi xalqaro statistikada qo'llaniladigan ta'rifga ko'ra "elektr energiyasidan foydalanish" degani, juda past chegarani qabul qiladi. Bu juda oddiy yoritishni ta'minlaydigan va kuniga 4 soat davomida telefonni zaryadlash yoki radioni quvvatlantirishga qodir bo'lgan elektr manbaiga ega bo'lish deb ta'riflanadi.

Mamlakatimizda ham qayta tiklanuvchi energiya va muqobil energiyadan samarali foydalanish sohasida bir qator islohotlar olib borilmoqda. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki mamlakatimizda aholining elektr to'ki bilan ta'minlanganlik darajasini mustaqillikdan keyingi ko'rinishida muntazam ravishda o'sib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Quyida berilgan birinchi jadvalda mamlakatimizning mustaqillikdan keyingi davrlarda (2000–2019-yillar oralig'ida) aholining elektr energiyasi bilan ta'minlanganlik darajasi qisman yoritib berilgan ^[2].

1 - j a d v a l: Aholining elektr energiyasi bilan ta'minlanganlik darajasi (2000–2019-yillar).

Yillar	Elektr energiyasi bilan ta'minlangan aholi soni (million)	Elektr energiyasi bilan ta'minlanmagan aholi soni (mingda)	Umumiy aholi soni (millionda)
2000	24,55	105 273	24,65
2001	24,87	93 702	24,96
2002	25,20	75 816	25,27
2003	25,49	76 181	25,57
2004	25,79	71 033	25,86



2005	26,10	68 817	26,17
2006	26,35	135,065	26,49
2007	26,80	70 118	26,87
2008	27,23	70 528	27,20
2009	27,70	68 371	27,77
2010	28,50	62 406	28,56
2011	29,29	49 543	29,34
2012	29,75	26 996	29,77
2013	30,23	10 208	30,24
2014	30,76	1 783	30,76
2015	31,30	0	31,30
2016	31,85	0	31,85
2017	32,29	0	32,29
2018	32,96	0	32,96
2019	33,58	0	33,58

Manba: <https://ourworldindata.org/>

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mustaqillikka erishganimizdan so'ng yildan yilga aholi soni oshib borgan, ammo aholining elektr energiyasi bilan ta'minlanganlik darajasi esa oshib borgan, bu shuni anglatadiki oxirgi 5 yillikda mamlakatimizning barcha aholisi elektr energiyasi bilan ta'minlangan. Shuni ham aytib o'tish lozimki, mamlakatimizning aholisi so'ngi 20 yilda qariyb 10 mInga oshgan, ammo yildan yilga aholining katta qismi elektr energiyasi bilan ta'minlangan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyot rivojida energetika sektori nafaqat O'zbekiston iqtisodiyoti, balki jahon iqtisodiyoti rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Aynan shuning uchun ham ko'plab olimlar ushbu sohaga aniq vaqt oralig'ida turli tomonlardan e'tibor berishgan.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) ko'magi va Yaponiya moliyalashi bilan ishlab chiqilgan "O'zbekiston elektr energetika tarmog'ining uglerod neytralligi bo'yicha yo'l xaritasi" ham ushbu sohaning muhimligini ko'rsatib berdi. Ushbu yo'l xaritasi O'zbekiston hukumatiga qayta tiklanadigan energiya va kam uglerodli texnologiyalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berishda ko'maklashish hamda energetika sohasini rivojlantirishni Parij kelishuvi bo'yicha o'z majburiyatlari bilan muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi ^[3]. Qayta tiklanuvchi energiya yo'l xaritasi beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha harakatlar rejasini taqdim etadi.

"Rossiya energetika sektoridagi MNKlarning investitsion jozibadorligi: baholash va muammolar" ^[4] ushbu sohadagi muhim tadqiqotlardan biridir. Ushbu tadqiqotda olimlar Rossiya iqtisodiyoti uchun energetika sohasini o'rganishdi. Ushbu tadqiqot bizning tadqiqotimiz bilan bog'liq. Chunki O'zbekistonda Rossyaning yirik energetika kompaniyalari filiallari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bois mazkur soha rivojida mazkur korxonalarning o'rni yuqori. Bu kompaniyalar Gazprom va Lukoyl.

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev tomonidan energiyani tejash sohasida qabul qilingan quyidagi qaror va farmonlarni qayd etishimiz mumkin. 2019-yil 22-avgustdagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4422-sonli qarori ^[5], 2020-yil 10-iyundagi "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4779-sonli qarori ^[6] va 2022-yil 9-sentabrdagi "Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va kichik sanoat korxonalarini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-220-sonli qarori mamlakatimizda ushbu sohaning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib beradi. Ushbu maqolada biz kelajakda muqobil energiya manbalarining ahamiyatini ko'rsatishga harakat qildik.



METADOLOGIYA

Ushbu maqolada statistik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali O'zbekiston elektr energiya sohasining hozirgi holati tahlil qilinadi. Maqolada tahlil va ilmiy abstraksiya kabi ilmiy usullardan ham foydalanilgan. Maqolada energetika sohasining hozirgi holati va investitsiya jozibadorligini oshirish kunlariga e'tibor qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jahon yalpi ichki mahsuloti va aholi sonining o'sishi ekologik muammolarni keskinlashtirib, energiya resurslari cheklanganligi to'g'risida xabardorlikni oshirar ekan, ko'plab davlatlar barqaror rivojlanishga o'tishni asosiy maqsad qilib oldilar. Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo panel (IPCC) ^[7] tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, CO₂ narxini atmosferaga chiqariladigan bir tonna karbonat angidrid (/tCO₂) uchun 50 AQSh dollarigacha oshirish va RES lardan foydalanishni kengaytirish CO₂ emissiyasini 2030-yilga nisbatan (38%) 2050-yilga kelib (70%) kamaytirishga yordam beradi.

O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining energiya sig'imi so'ngi yillarda pasayib borayotgan bo'lsada, bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarnikidan ancha yuqoriligicha qolmoqda. YalMning o'rtacha global energiya sig'imi hozirda 240 kilogramm neft ekvivalenti (kgoe)/1000 AQSH dollarini tashkil etadi. Biroq, O'zbekiston YalMning energiya sig'imi Yevropa Ittifoqidagidan deyarli to'rt baravar va jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar yuqori. Natijada O'zbekiston yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan CO₂ emissiyasi ancha yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kiradi.

Qayta tiklanadigan energiya salohiyati

2018-yilda O'zbekiston Parij kelishuvini ratifikatsiya qildi va 2030-yilga borib YalM birligiga to'g'ridan to'g'ri emissiyalarni 2010-yilga nisbatan 10 foizga kamaytirish bo'yicha milliy majburiyatni qabul qildi. 2019–2030-yillarda O'zbekiston 2030-yilga borib elektr energiyasining umumiy ishlab chiqarishdagi QTE ulushini 25 foizdan ko'proqqa oshirishni maqsad qilgan ^[8]. Shuningdek, energiya samaradorligi ko'rsatkichini ikki barobarga oshirish, yalpi ichki mahsulotning uglerod intensivligini pasaytirish, butun aholini va barchani ta'minlashni rejalashtirmoqda. Zamonaviy, arzon va ishonchli energiyadan foydalanish imkoniyatiga ega iqtisodiyot tarmoqlari ni ulushini oshirish bo'yicha sanoat korxonalari, ishlab chiqarish korxonalari hamda byudjet tashkilotlardai quyosh panellarini o'rnatish taklifi ishlab chiqildi hamda joriy yil boshidan amaliyotga tatbiq etildi.

O'zbekistonning katta QTE salohiyati yashil, ekologik toza iqtisodiyotning sezilarli rivojlanishiga turtki berishi mumkin. Mamlakatning umumiy QTE salohiyati 117 984 million tonnani, texnik salohiyati esa 179,3 million tonnani tashkil etadi. Ushbu potensialning asosiy qismi quyosh energiyasiga to'g'ri keladi (umumiy salohiyat 51 Gtoe va texnik salohiyat 177 Mtoe). Darhaqiqat, quyosh energiyasining texnik salohiyati mamlakatning asosiy energiya iste'molidan deyarli to'rt baravar ko'pdir. Uning qulay iqlimi va geografik joylashuvi O'zbekistonga quyosh energiyasidan turli sanoat maqsadlarida foydalanish imkonini beradi. Shamol energiyasi potentsiali 2,2 Mtoe bo'lib, 19% texnik rivojlanish ko'rsatkichiga ega. Quyida berilgan jadvalda O'zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya salohiyati to'liqligicha yoritib berilgan.

2-jadval: O'zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha salohiyati

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari	Yalpi qiymati	Texnik salohiyati
Gidroenergetika	9,2 Mtoe	2 Mtoe
Shamol elektr energiyasi	2,2 Mtoe	0,4 Mtoe
Quyosh elektr energiyasi	50 973 Mtoe	177 Mtoe
Geotermal elektr energiyasi	67 000 Mtoe	0,3 Mtoe

Manba: <https://www.iea.org/reports/uzbekistan-energy-profile/sustainable-development> ^[9]

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki bugungi kunda qayta tiklanuvchi energiyaning asosiy qismlarini quyosh elektr energiyasi hamda geothermal elektr energiyasi tashkil qilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri so'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan energiya sohasidagi islohotlar hisoblanadi. O'zbekistonning qayta tiklanadigan energiya manbalarining umumiy quvvati 2020-yilda 2 000 MVtni tashkil etdi, bu umumiy



energiya iste'molining qariyb 3 foizini qoplatadi. O'rtacha hisobda mamlakatdagi umumiy elektr energiyasining 10–12% qayta tiklanuvchi energiyadan ishlab chiqariladi.

Aytib o'tish joizki so'ngi yillarda mamlakatimizda energiya sohasini yanada isloh qilish, jahon standartlariga mos ravishda qayta tiklanuvchi energiyalarni ishlab chiqarish, atrof-muhitga zarar keltirmaydigan ishlab chiqarish jarayonini yo'lga qo'yish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bulardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi "Yashil energiya" sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi^[10] PQ-156-sonki qarorida ham ushbu sohaga alohida to'xtalib o'tilgan. Ushbu qarorda 2023-yil 1-iyuldan boshlab "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati tizimidagi gidroelektr stantsiyalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun hamda 2023-yil 1-oktabrdan boshlab quyosh, shamol va gidroelektr stantsiyalarida hamda qayta tiklanuvchi boshqa energiya manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun "Yashil energiya" sertifikatlash tizimi joriy etilishi haqida aytib o'tilgan^[7]. Bu o'z navbatida ushbu sohada olib borilayotgan islohotlarning amaldagi natijasi hisoblanadi.

Qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha oldinga qo'yilgan maqsadlar

O'zbekistonning umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvati 14,1 GVtni tashkil etadi, IES ulushi esa 85,8 foizni tashkil qiladi. Yalpi ichki mahsulot va aholining o'sishi bilan mamlakatning elektr energiyasiga bo'lgan talabi ortib borishi kerak. Shuning uchun ishlab chiqarish 2025-yilga borib 84,9 milliard kVt/soatgacha ko'tarilishi prognoz qilinmoqda – bu 2018-yil darajasidan 40 foizga yuqori. 2030-yilgacha elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatini 2,5 baravar oshirish, yillik ishlab chiqarishni ikki baravar oshirish kutilmoqda^[11].

Bugungi kunda ko'pgina mamlakatlarning qayta tiklanadigan energiya maqsadlari orasida issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish, yakuniy energiya iste'molida qayta tiklanadigan energiya ulushini oshirish va energiyaga o'sib borayotgan talabni qondirish kiradi. O'zbekistonda qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish va uning umumiy energiya balansidagi ulushini oshirish bo'yicha ham vazifalar ishlab chiqilmoqda. Bu, xususan, qayta tiklanadigan energiyaning jami elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushini 2018-yildagi 10–12 foizdan 2025-yilga kelib 20 foizga, shu jumladan GES ulushini 10–12 foizdan 15,8 foizga, quyosh energiyasini 1,95 foizdan 2,3 foizga va shamol energiyasi 1,36% dan 1,6% gacha oshirish maqsad qilingan^[12].

Qayta tiklanadigan energiya manbalarining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar

Rivojlanayotgan boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga bir qator omillar to'sqinlik qilmoqda.

Birinchidan, an'anaviy energiya manbalari bilan solishtirganda qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishning yuqori narxi va uning cheklangan ishlab chiqarish quvvati, shuningdek, boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda an'anaviy energiya manbalarining arzonligi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qayta tiklanuvchi energiyada elektr energiyasi ishlab chiqarish tannarxi hamon yuqori bo'lib, O'zbekiston o'z aholisini arzon elektr energiyasi bilan ta'minlovchi mamlakatlar guruhida yetakchilik qilmoqda.

Ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni rag'batlantiradigan aniq moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari (tariflar va soliqlar) mavjud emas. Qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmlari uchun huquqiy asos yetarli emas.

Uchinchidan, zamonaviy boshqaruv tizimlariga asoslangan progressiv texnika va texnologiyalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. QTE rivojlanish sur'atlarining pastligining asosiy sabablaridan biri bu energiya ishlab chiqarish texnologiyalarining texnik jihatdan nomukammalligidir. Bundan tashqari, qisqa muddatli energiya tizimining rentabelligi past.

To'rtinchidan, boshqa ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda bo'lgani kabi, aholining energiyaning zamonaviy shakllari, ayniqsa, qayta tiklanadigan energiya haqida xabardorligi kam.

Beshinchidan, qayta tiklanadigan energiya manbalarining innovatsion texnologiyalari O'zbekistonga yetib borishi uchun juda tez rivojlanmoqda.

Oltinchidan, atom energetikasi qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish ko'lamiga ta'sir qiladi va energetika sohasining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiyalardan toza energiya ishlab chiqarish AES lardan 20 baravar qimmatroq. Hisob-kitoblarga ko'ra, ko'mirning jahon zaxiralari 270 yil, neft 50 yil va gaz 70 yil davom yetadi, AESlarda ishlatiladigan uran zaxiralari esa 5 718 400 tonnani tashkil etadi – bu 2 500 yilga yetarli. 12 ta davlatda AESlarning elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi yuqori bo'lib, 30% dan oshadi (Fransiyada 75%; Slovakiyada 54%; Belgiyada 51% va Ukrainada 46%). Shularni hisobga olgan holda mamlakatimizda ham qayta tiklanuvchi energiya sohasini rivojlantirishga qaratilayotgan islohotlar yaqin kelajakda o'z foydasini berishga umid qilamiz^[13].



Mamlakatimiz mustaqillika erishgandan so'ng energetika sohasiga alohida e'tibor qaratdi. Ushbu sohada bir qator qonunchiliklar va qarorlar, farmonlar ishlab chiqildi. So'ngi yillarda esa hamma davlatlar singari mamlakatimizda muqobil energiyaga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Quyida beriladigan chizmada mamlakatimizda mustaqillik yillarida va undan so'ng muqobil energiya ishlab chiqarish sohasida qanday o'zgarishlar mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin.



1 - r a s m: O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng muqobil energiya ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (foizda).

Manba: <https://ourworldindata.org/> ^[14]



1-rasmda berilgan grafikdan ko'rinib turibdiki mamlakatimizda muqobil energiya ishlab chiqarish keskin tushib ham ketgan emas, kesgin oshib ham ketgan emas. Umumiy grafikdan kelib chiqqan holatda shuni aytib o'tish mumkinki mustaqillik yillarida qayta tiklanuvchi energiyaning samarasi yuqori bo'lgan, eng katta ulush esa 2010-yilga to'g'ri kelgan va 4,2% ni tashkil etgan, 2021-yilda esa 2,65% ni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkichni oshirish maqsadida mamlakatimizda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish

Qayta tiklanadigan energiyani rag'batlantirishning muhim vositasi bu yashil sertifikatlash tizimi bo'lib, u mamlakatda foydalaniladigan yoqilg'ining tarkibi va turlari haqidagi ma'lumotlarni aniqlaydi va tasdiqlaydi hamda elektr energiyasining kelib chiqishi bo'yicha shaffoflikni ta'minlaydi. Ushbu sertifikatlar mahsulotni markalash uchun ham qo'llaniladi.

Yashil sertifikatlar qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish uchun ishlatiladi, chunki ular hukumat tomonidan qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqaruvchilari, iste'molchilari va yetkazib beruvchilariga subsidiyalar, imtiyozlar va boshqa moliyaviy yordam turlarini taqdim etishning asosi hisoblanadi. Joriy yildan boshlab ushbu tizim mamlakatimizda yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rag'batlantirishning yana bir muhim iqtisodiy mexanizmi qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalariga sarmoya kiritishni rag'batlantirish maqsadida dunyoning 65 dan ortiq mamlakatlarida joriy etilgan yashil tarifdir.

O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya sohasi rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarga qarshi turish uchun hukumat turli iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini, jumladan yashil sertifikatlash tizimi, yashil tariflar, bonusli tariflar (feed-in tariflari), grantlar va subsidiyalar va soliq imtiyozlarini joriy qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. International energy agency. <https://www.iea.org/>
2. Research and data to make progress against the world's largest problems. Our world in one data. <https://ourworldindata.org/>
3. The Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC) is the United Nations body for assessing the science related to climate change. <https://www.ipcc.ch/>
4. UN Climate Change Conference (COP21) in Paris. December 21, 2015. Paris. The Paris Agreement | United Nations
5. Olga Yu, Gulnora Alekseyeva, Kira Artamovna, "Investment Attractiveness of the Russian Energy Sector MNCs: Assessment and Challenges". International Journal of Energy Economics and Policy. (PDF) Investment Attractiveness of the Russian Energy Sector MNCs: Assessment and Challenges (researchgate.net)
6. Resolution of the president of Uzbekistan Sh. M. Mirziyoyev. "On rapid measures to increase the energy efficiency of economic sectors and the social sector, introduce energy-saving technologies and develop renewable energy sources". PQ-4422. August 22, 2019. <https://lex.uz/docs/4486125>
7. Resolution of the president of Uzbekistan Sh. M. Mirziyoyev. "On improving the energy efficiency of the economy and existing measures". PQ-4779. June 10, 2020. <https://lex.uz/docs/4890081>
8. "Uzbekistan's energy profile" Sustainable development. International energy agency. <https://www.iea.org/>
9. Sh. M. Mirziyoyev. "Yashil energiya" sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida". 2.05.2023-yil, PQ-156-sonli qaror.
10. Sh.M. Mirziyoyev. "O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-436-son qarori, O'zbekiston. 2019.
11. "Energiya siyosati sharhi 2022" Xalqaro energiya agentligi (IEA). O'zbekiston 2022.

Internet saytlari

8. www.unep.org
9. www.oecd.org
10. <https://unfccc.int/>
11. www.worldbank.org
12. https://www.wto.org/english/tratop_e/dispu_e/dispu_subjects_index_e.htm

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.